2026-yil
8-son

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI

ILMIY - METODIK

JURNALI

saen.uz

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI

2026-yil
8-son

Bosh muharrir:
Shoumarov G‘ayrat Bahromovich, psixologiya fanlari doktori, akademik

Bosh muharrir o‘rinbosari:
Qodirov Umarali Do‘stqobilovich, psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Mas’ul kotib:
Muqimov Alisher

Texnik muharrir:
Qarshiyev Jamshid Murotaliyevich, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.

TAHRIR HAY’ATI:

01.00.00 – FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI
Ayupov Shavkat Abdullayevich, fizika-matematika fanlari doktori, akademik
A’zamov Abdulla, fizika-matematika fanlari doktori, akademik
Zohidov Erkin A’zamovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor

02.00.00 – KIMYO FANLARI
Normaxamatov Nodirali Soxobataliyevich, kimyo fanlar doktori, professor
Tojibayev Komiljon Sharobitdinovich, kimyo fanlar doktori, akademik

03.00.00 – BIOLOGIYA FANLARI
Abdurahmonov Ibrohim Yo‘lchiyevich, biologiya fanlari doktori, akademik
Sulaymonov Botirjon Abdushukurovich, biologiya fanlari doktori, akademik

04.00.00 – GEOLOGIYA-MINERALOGIYA FANLARI
Fayziyev Abdulhaq Radjabovich, geologiya-mineralogiya fanlari doktori, professor
Husanov Sultonboy To‘xtayevich, geologiya-mineralogiya fanlari doktori, professor

05.00.00 – TEXNIKA FANLARI
Allayev Qahramon Rahimovich, texnika fanlari doktori, akademik
Majidov Inom Urishevich, texnika fanlari doktori, professor
Turobjonov Sadritdin Maxamatdinovich, texnika fanlari doktori, akademik
Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

06.00.00 – QISHLOQ XO‘JALIGI FANLARI
Namozov Shodmon Ergashovich, qishloq xo‘jaligi fanlari doktori, akademik
Shoumarov Hikmat Bahromovich, qishloq xo‘jaligi fanlari nomzodi, professor

07.00.00 – TARIX FANLARI
Ziyo Azamat Hamid o‘g‘li, tarix fanlari doktori, akademik
Sagdullayev Anatoliy Sagdullayevich, tarix fanlari doktori, akademik
Yusupova Diloram Yunusovna, tarix fanlari doktori, akademik

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI
Abdurahmonov Qalandar Xodjayevich, iqtisod fanlari doktori, akademik
Musayev Behzod Anvarovich, iqtisod fanlari nomzodi
To‘xliyev Nurislom, iqtisod fanlari doktori, akademik
G‘ulomov Saidahror Saidahmedovich, iqtisod fanlari doktori, akademik

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI
2026-yil
8-son

09.00.00 – FALSAFA FANLARI
Nazarov Qiyom Normirzayevich, falsafa fanlari doktori, professor
Saifnazarov Ismoil Saifnazarovich, falsafa fanlari doktori, professor

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI
Mengliyev Baxtiyor Rajabovich, filologiya fanlari doktori, professor
Sirojiddinov Shuhrat Samariddinovich, filologiya fanlari doktori, akademik
Xidirov Rajab Gulmatovich, filologiya fanlari nomzodi, dotsent (Tojikiston)

11.00.00 – GEOGRAFIYA FANLARI
Nigmatov Asqar Nigmatullayevich, geografiya fanlari doktori, professor
Tojiyeva Zulxumor Nazarovna, geografiya fanlari doktori, professor

12.00.00 – YURIDIK FANLAR
Rustamboyev Mirzayusuf Hakimovich, yuridik fanlar doktori, professor
Saidov Akmal Xolmatovich, yuridik fanlar doktori, akademik
Xolmo'minov Jumanazar Toshtemirovich, yuridik fanlar doktori, professor
Qodirov Bobiromon Bekmurodovich, yuridik fanlar doktori, professor

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI
Djurayev Risboy Haydarovich, pedagogika fanlari doktori, akademik
Ibraimov Xolboy, pedagogika fanlari doktori, akademik
Musurmonova Oynisa, pedagogika fanlari doktori, professor
Umarov Bahrom Norboyevich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

14.00.00 – TIBBIYOT FANLARI
Akilov Xabibulla Ataullayevich, tibbiyot fanlari doktori, professor
Nazirov Feruz Gafurovich, tibbiyot fanlari doktori, akademik

15.00.00 – FARMATSEVTIKA FANLARI
Abdullabekova Viloyat Nurillabekovna, farmatsevtika fanlari doktori, professor
Tulaganov Abduqodir Abdurahmonovich, farmatsevtika fanlari doktori, professor

16.00.00 – VETERINARIYA FANLARI
Daminov Asadullo Suvonovich, veterinariya fanlari doktori, professor
Jabborov Shuhrat Abdumajidovich, veterinariya fanlari doktori, professor
G'afurov Aktam G'afurovich, veterinariya fanlari doktori, professor

17.00.00 – SAN'ATSHUNOSLIK FANLARI
Ahmedova Nigora Rahimovna, sanatshunoslik fanlari doktori, professor
Hakimov Akbar Abdullayevich, san'atshunoslik fanlari doktori, akademik

18.00.00 – ARXITEKTURA
Nozilov Dodo Avazovich, arxitektura fanlari doktori, professor
Uralov Axtam Sindarovich, arxitektura fanlari doktori, professor

19.00.00 – PSIXOLOGIYA FANLARI
Abdusamatov Hasanboy Usmonjon o'g'li, psixologiya fanlari doktori, professor
Barotov Sharif Ramazonovich, psixologiya fanlari doktori, professor
Karimova Vasila Mamanosirovna, psixologiya fanlari doktori, professor
Halimova Mashraboy Vohidovna, psixologiya fanlari doktori, professor
Lazar Drajeta, psixologiya fanlari doktori, professor, Belgrad, Serbiya
Karpinskiy Konstantin Viktorovich, psixologiya fanlari doktori, professor, Grodno, Belarussiya
Suletbayeva Ella Serikbayevna, psixologiya fanlari doktori, dotsent

22.00.00 – SOTSIOLOGIYA FANLARI
Bekmurodov Mansur Bobomurodovich, sotsiologiya fanlari doktori, professor
Toshmuhamedova Dilorom Gafurdjanovna, sotsiologiya fanlari doktori

23.00.00 – SIYOSIY FANLAR
Fayzullayev Alisher Omonullayevich, siyosiy fanlar doktori, professor
Hasanov Otabek Abdurashidovich, siyosiy fanlar doktori
Paxrutdinov Shukritdin Ilyasovich, siyosiy fanlar doktori, professor
Omonov Baxtiyor Axtamovich, siyosiy fanlar doktori, professor
Quronboyev Qahramon Qo'chqorovich, siyosiy fanlar doktori, professor
Avazov Komil Xolliyevich, siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori

24.00.00 – ISLOMSHUNOSLIK FANLARI
Ibrohimov Ne'matulla, filologiya fanlari doktori, akademik
Islomov Zohidjon Mahmudovich, filologiya fanlari doktori, professor

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI
2026-yil
8-son

UDK: 37.018.1:316.356.2:17.02

Safarova Dilnoza Kuchkarovna,
Vatan universiteti
"Ijtimoiy fanlar" kafedrasi katta o'qituvchisi

OILADA O'SMIRLIK DAVRIDAGI FARZAND BILAN O'ZARO MUNOSABATLARDA MILLIY QADRIYATLARNING O'RNI

Annotatsiya. Ushbu maqola oilada o'smirlik davridagi farzand bilan o'zaro munosabatlarda milliy qadriyatlarning o'rni mavzusida bo'lib, oilada bolalarni milliy ruhda tarbiyalashda ota-onaning shaxsiy namunasi, oiladagi psixologik muhit, tarbiyaviy munosabatlar, milliy urf-odatlarga amal qilish darajasi va bolaning fikriga hurmat bilan munosabatda bo'lish muhim omillar hisoblananishi haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: oila, muhit, qadriyatlar, tarbiya, urf-odat, hurmat, milliy qadriyat, mehr-oqibat.

РОЛЬ НАЦИОНАЛЬНЫХ ЦЕННОСТЕЙ В ВЗАИМООТНОШЕНИЯХ В СЕМЬЕ С РЕБЕНКОМ ПОДРОСТКОВОГО ВОЗРАСТА

Аннотация. В статье рассматривается роль национальных ценностей во взаимоотношениях в семье с ребенком подросткового возраста. Особое внимание уделяется значению личного примера родителей, психологического климата в семье, характера воспитательных отношений, соблюдения национальных традиций и обычаев, а также уважительного отношения к мнению подростка в процессе его воспитания в духе национальных ценностей.

Ключевые слова: семья, среда, ценности, воспитание, традиции, уважение, национальные ценности, доброта и взаимопомощь.

THE ROLE OF NATIONAL VALUES IN FAMILY RELATIONSHIPS WITH AN ADOLESCENT CHILD

Abstract. This article examines the role of national values in family relationships with an adolescent child. Particular attention is paid to the importance of parents' personal example, the psychological climate within the family, the nature of parent-child relationships, adherence to national traditions and customs, and respect for the adolescent's opinions in the process of upbringing based on national values.

Keywords: family, environment, values, upbringing, traditions, respect, national values, kindness and mutual support.

Kirish. Jahonda globallashuv va axborotlashuv jarayonlarining jadallashuvi natijasida yosh avlodning ma'naviy-axloqiy qiyofasini shakllantirish, uni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash masalasi dolzarb ilmiy-pedagogik muammolardan biriga aylanmoqda [1; 2]. Turli madaniyatlar va axborot oqimlarining o'zaro ta'siri kuchayib borayotgan bugungi sharoitda bolalarda milliy o'zlikni anglash, ona Vatanga muhabbat, ajdodlar merosiga hurmat, kattalarga ehtirom, kichiklarga g'amxo'rlik, mehr-oqibat va mas'uliyat kabi fazilatlarni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu jarayonda oilaning tarbiyaviy imkoniyatlari, ayniqsa, milliy qadriyatlarning oilaviy munosabatlar va kundalik hayot orqali avloddan avlodga yetkazilishi alohida o'rin tutadi.

Oila bolaning shaxs sifatida shakllanishidagi dastlabki va eng muhim ijtimoiy muhit hisoblanadi [3; 4; 7]. Bola hayotining ilk davrlaridanoq ota-onasi va boshqa oila a'zolarining xulq-atvori, o'zaro munosabatlari, qadriyatlari hamda hayotiy qarashlarini kuzatib, ularni o'zlashtira boshlaydi. Shu sababli oilada milliy qadriyatlarning mazmunli va izchil namoyon etilishi bolaning ma'naviy dunyosi, axloqiy qarashlari hamda milliy o'zligini anglashiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, xalq og'zaki ijodi, urf-odat va an'analar, milliy bayramlar, oilaviy marosimlar, kattalarga hurmat va kichiklarga izzat, mehmondo'stlik, mehnatsevarlik, halollik va mehr-oqibat kabi qadriyatlar yosh avlod tarbiyasida samarali vosita bo'lib xizmat qiladi.

Bugungi kunda O'zbekistonda yosh avlodni har tomonlama barkamol etib tarbiyalash, oilaning tarbiyaviy salohiyatini oshirish va milliy qadriyatlarni asrab-avaylashga katta e'tibor qaratilmoqda. Milliy qadriyatlar xalqning tarixiy xotirasi, ma'naviy tajribasi va madaniy merosini mujassamlashtirgan holda, bolalarda o'z millatiga mansublik tuyg'usini shakllantirishga yordam beradi. Shu bilan birga, milliy qadriyatlarni yosh avlod tarbiyasiga singdirish faqat an'analarni takrorlash bilan cheklanmasdan, ularning mazmun-mohiyatini zamonaviy tarbiya talablari bilan uyg'unlashtirishni ham taqozo etadi.

Oilada o'smirlarni milliy ruhda tarbiyalashda ota-onaning shaxsiy namunasi, oiladagi psixologik muhit, tarbiyaviy munosabatlar, milliy urf-odatlarga amal qilish darajasi va bolaning fikriga hurmat bilan munosabatda bo'lish muhim omillar hisoblanadi [4; 5; 7]. Ayniqsa, o'smirlarga milliy qadriyatlarning mazmunini tushuntirish, ularga ushbu qadriyatlarni amaliy faoliyat orqali anglash va hayotda qo'llash imkoniyatini yaratish oilaviy tarbiyaning samaradorligini oshiradi. O'smirlik davrida bolaning mustaqil fikrlashi, o'z qarashlarini shakllantirishi va atrofdagilar bilan munosabatlariga baho berishi kuchaygani sababli, tarbiya jarayonida uning fikrini tinglash va shaxsiy nuqtayi nazariga hurmat bilan yondashish muhim ahamiyatga ega.

Shu nuqtayi nazardan, oilada o'smirlarni milliy ruhda tarbiyalashda milliy qadriyatlarning o'rnini ilmiy jihatdan o'rganish, ularning bola shaxsining ma'naviy-axloqiy rivojlanishiga ta'sirini aniqlash hamda oilaviy tarbiyada ulardan samarali foydalanish yo'llarini belgilash dolzarb masalalardan biridir. Mazkur mavzuni

tadqiq etish oilaning tarbiyaviy imkoniyatlarini yanada takomillashtirish, o‘smirlarda milliy o‘zlikni anglash, ijobiy axloqiy sifatlar va jamiyat oldidagi mas’uliyat tuyg‘usini shakllantirishga xizmat qiluvchi amaliy tavsiyalar ishlab chiqish imkonini beradi.

Oila hayotning davomiyligini va avlodlar vorisligini ta’minlaydigan, xalqning asrlar davomida shakllangan urf-odatlari va qadriyatlarini saqlaydigan, shu bilan birga, kelajak avlodning qanday inson bo‘lib voyaga yetishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadigan muhim tarbiya maskanidir. Sharq xalqlari, jumladan, o‘zbek xalqining ma’naviy hayotida oila qadimdan muqaddas tushuncha sifatida e’zozlangan. Oiladagi sog‘lom ma’naviy-axloqiy muhit farzand tarbiyasiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi bilan birga, mahalladagi tinchlik, hamjihatlik va o‘zaro hurmatning mustahkamlanishiga ham xizmat qiladi. Shu ma’noda, oiladagi farovonlik va barqarorlik jamiyat farovonligining muhim asoslaridan biri hisoblanadi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi. Oila tushunchasining tarixiy ildizlari haqida so‘z yuritganda, avvalo, halollik, rostgo‘ylik, or-nomus, sharmu hayo, mehr-oqibat, mehnatsevarlik kabi insoniy fazilatlarning shakllanishida oilaning beqiyos o‘rni namoyon bo‘ladi [3]. Insonning dastlabki tarbiyaviy tajribasi, odob-axloq me’yorlari, kattalarga hurmat, kichiklarga g‘amxo‘rlik, o‘zaro mehr va mas’uliyat kabi tushunchalar, eng avvalo, oilaviy muhitda qaror topadi. Oila haqida so‘z yuritganda, avvalo, ona siymosi ko‘z oldimizda gavdalanadi. Zero, oiladagi mehr-muhabbat, osoyishtalik va ma’naviy muhitni shakllantirishda onaning o‘rni alohida ahamiyatga ega. Onaning pokizaligi, oqilaligi, mehr-muruvvati, sadoqati va vafodorligi oilaning ma’naviy asoslarini mustahkamlovchi muhim omillardan hisoblanadi.

Insonning ma’naviy kamoloti masalasi Sharq tafakkurida qadimdan alohida e’tibor markazida bo‘lgan. Inson qalbi ilm va ma’rifatni anglash, ezgulik va haqiqatni idrok etish imkoniyatiga ega bo‘lgan noyob ma’naviy olam sifatida talqin etilgan. Insonning buyukligi ham uning o‘zligini anglash, ezgulik sari intilish va hayotdagi o‘z vazifasi hamda mas’uliyatini tushunib yetishi bilan bog‘langan. Buning uchun inson atrof-muhit va tabiatga, oilasiga, boshqa insonlarga, jamiyat va bashariyatga, Vatan va millatga, ota-ona, farzand hamda do‘stlariga nisbatan o‘z huquq va burchlarini anglab yetishi, o‘zining ichki imkoniyatlari, ruhiyati, irodasi va ma’naviy salohiyatini rivojlantirishi zarur. Shu ma’noda, insonning hayotdagi maqsadini anglab yetishi va jamiyat oldidagi mas’uliyatini his qilishi uning ma’naviy kamolotining muhim ko‘rsatkichlaridan biridir.

Ruh tarbiyasi, insonning ma’naviy kamoloti va oilaviy tarbiya masalalari haqida ajdodlarimiz tomonidan ko‘plab qimmatli ilmiy va falsafiy asarlar yaratilgan. Jumladan, XIII asrda yashab ijod qilgan Shayx Najmiddin Kubroning shogirdlaridan biri Najmiddin Doya qalamiga mansub “Mirsod ul-ibod min al-mabda ilal-maod” (“Alloh bandalarining boshlang‘ichdan tugallanishgacha bo‘lgan hayot yo‘li”) asarida inson ruhiyati, oila, tarbiya va ma’naviy kamolot masalalariga oid muhim mulohazalar bayon etilgan. Mazkur asarning milliy ma’naviy tafakkurdagi

ahamiyatini inobatga olgan Xorazm xoni Muhammad Rahimxon Soniy (Feruz) XIX asrda uni fors tilidan o‘zbek tiliga tarjima qildirish va kitobat ettirishga topshiriq bergan.

Asarning birinchi bobi debochadan, besh fasldan iborat ikkinchi bobi esa inson ruhining tabiati, oilaviy tarbiya, ruh va tana munosabati kabi masalalardan tashkil topgan bo‘lib, mazmunan inson ruhiyatini o‘rganishga oid qarashlarning dastlabki manbalaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Asarning asosiy qismini tashkil etuvchi uchinchi bob yigirma fasldan iborat bo‘lib, unda inson tarbiyasi, uning ma’naviy shakllanishi va kamol topishi bilan bog‘liq ko‘plab masalalar yoritilgan. Ushbu qarashlar ajdodlarimiz tafakkurida inson tarbiyasi va oilaviy muhitga katta ahamiyat berilganini ko‘rsatadi.

Markaziy Osiyoda bir necha ming yillar davomida kechgan tarixiy taraqqiyot jarayonida xalq og‘zaki ijodi namunalari, mif va afsonalar ijodiy jihatdan qayta ishlanib, yangi voqea-hodisalar, ma’lumotlar, fikrlar, tushunchalar va g‘oyalar bilan boyib borgan. Natijada ular avloddan avlodga o‘tib, xalqning tarixiy xotirasi, ma’naviy dunyosi va axloqiy qarashlarini aks ettiruvchi muhim madaniy merosga aylangan. Bunday asarlarda oila, Vatan, sadoqat, jasorat, or-nomus, do‘stlik, mehr-oqibat, kattalarga hurmat va kichiklarga g‘amxo‘rlik kabi qadriyatlar keng ifodalangan.

Jumladan, “To‘maris”, “Shiroq”, “Zariadr va Odatida”, “Zarina va Striangiya”, “Uch og‘a-ini botirlar”, “Qahramon”, “Malikai Husnobod” kabi qissa va rivoyatlar, shuningdek, “Alpomish”, “Qirq qiz”, “Go‘ro‘g‘li”, “Ravshan”, “Avazxon”, “Chambil qamali”, “Oysuluv” kabi dostonlarda milliy va umuminsoniy ahamiyatga ega bo‘lgan falsafiy, axloqiy va tarbiyaviy g‘oyalar ilgari surilgan. Mazkur asarlar yosh avlodda Vatanga sadoqat, mardlik, jasorat, do‘stlik, vafo, or-nomus va adolat kabi fazilatlarni shakllantirishda muhim ma’naviy manba bo‘lib xizmat qiladi.

Markaziy Osiyo xalqlarining bosqinchilarga qarshi kurashini badiiy aks ettiruvchi “To‘maris” va “Shiroq” haqidagi rivoyatlar bunga yaqqol misol bo‘la oladi. To‘maris haqidagi qissada massagetlar malikasi To‘marisning Eron bosqinchilariga qarshi kurashdagi mardligi, dovyurakligi, jasorati, donishmandligi va Vatanga sadoqati chuqur ifodalangan. Uning dushmanga nisbatan ziyrak va hushyorligi, xalqining ozodligi va mustaqilligi yo‘lida qat’iyat bilan harakat qilishi yosh avlod uchun muhim tarbiyaviy ahamiyatga ega. Ushbu rivoyat orqali Vatanga sadoqat, xalq manfaatini shaxsiy manfaatdan ustun qo‘yish, jasorat va qat’iyat kabi qadriyatlarning mohiyatini anglash mumkin.

Shu jihatdan, tarixiy manbalar, xalq og‘zaki ijodi va milliy adabiyot namunalarida aks etgan tarbiyaviy g‘oyalarni oilaviy tarbiya jarayonida o‘smirlarga yetkazish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday asarlarni oilada birgalikda o‘qish, ularning mazmunini muhokama qilish va qahramonlarning xatti-harakatlariga baho berish orqali o‘smirlarda milliy qadriyatlarga hurmat, tarixiy xotira, Vatanga muhabbat va axloqiy mas’uliyat tuyg‘ularini shakllantirish mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotning metodologik asosini oila psixologiyasi, yosh davrlari psixologiyasi, ijtimoiy psixologiya va pedagogika fanlarida ishlab chiqilgan shaxslararo munosabatlar, oilaviy tarbiya hamda milliy qadriyatlarning shaxs rivojlanishidagi o‘rni haqidagi ilmiy-nazariy qarashlar tashkil etadi. Tadqiqotda o‘smirlik davrida farzand va ota-ona o‘rtasidagi munosabatlarning mazmuni, oiladagi milliy qadriyatlarning ushbu munosabatlarga ta’siri hamda o‘smir shaxsining ijtimoiy-psixologik rivojlanishidagi ahamiyatini aniqlashga e’tibor qaratildi.

Tadqiqotda nazariy metodlar sifatida ilmiy-pedagogik va psixologik adabiyotlarni o‘rganish, tahlil qilish, taqqoslash, umumlashtirish va tizimlashtirish metodlaridan foydalanildi. Ushbu metodlar orqali oila, o‘smirlik davri, ota-ona va farzand munosabatlari hamda milliy qadriyatlar masalasiga oid ilmiy qarashlar tahlil qilindi.

Tadqiqotning empirik metodlari sifatida kuzatish, suhbat, so‘rovnoma va psixologik diagnostika metodlaridan foydalanish mumkin. Kuzatish metodi yordamida ota-ona va o‘smir o‘rtasidagi kundalik muloqot, oilaviy vaziyatlarda o‘zaro munosabat va milliy qadriyatlarga munosabat holatlari o‘rganiladi. Suhbat metodi orqali ota-onalar va o‘smirlarning oilaviy qadriyatlar, an’analar, o‘zaro hurmat va ishonch haqidagi qarashlari aniqlanadi.

So‘rovnoma yordamida o‘smirlarning oilada milliy qadriyatlarning qay darajada namoyon bo‘lishi, ota-onalar bilan munosabatlarda hurmat va ishonchning mavjudligi, oilaviy an’analarga munosabat hamda ota-onaning tarbiyaviy ta’siri haqidagi fikrlari o‘rganiladi.

Tadqiqotda ota-ona va o‘smir o‘rtasidagi munosabatlarni aniqlash uchun “Ota-ona va farzand munosabatlari” yo‘nalishidagi psixodiagnostik metodikalardan foydalanish, shuningdek, milliy qadriyatlarga munosabatni aniqlashga qaratilgan mualliflik so‘rovnomasini ishlab chiqish mumkin. Mualliflik so‘rovnomasida oilaviy an’analar, kattalarga hurmat, o‘zaro yordam, mehmondo‘stlik, vatanparvarlik, milliy urf-odatlarga munosabat va oilaviy mas’uliyat kabi mezonlar aks ettiriladi.

Tadqiqotning asosiy mezonlari sifatida quyidagilar belgilandi: ota-ona va farzand o‘rtasidagi o‘zaro hurmat; emotsional yaqinlik va ishonch; oilaviy muloqot sifati; milliy urf-odat va an’analarga amal qilish; kattalarga hurmat va kichiklarga g‘amxo‘rlik; oilaviy mas’uliyat; o‘smirning milliy o‘zlikni anglashi.

Tadqiqot natijalarini qayta ishlashda miqdoriy va sifat tahlili usullaridan foydalaniladi. Olingan ma’lumotlar foizlarda ifodalanib, o‘smirlarning milliy qadriyatlarga munosabati hamda ota-ona va farzand o‘rtasidagi munosabatlar darajasi bo‘yicha taqqoslanadi. Zarur hollarda natijalarni matematik-statistik qayta ishlash metodlaridan ham foydalanish mumkin.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati shundan iboratki, uning natijalaridan ota-onalar, maktab psixologlari, pedagoglar va tarbiyachilar o‘smirlik davridagi farzandlar bilan samarali muloqot o‘rnatishda foydalanishlari mumkin. Shuningdek,

tadqiqot natijalari asosida oilaviy tarbiya, milliy qadriyatlarni yosh avlodga singdirish va ota-ona hamda farzand o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni yaxshilashga qaratilgan amaliy tavsiyalar ishlab chiqilishi mumkin.

Tahlil va natijalar. Mazkur tadqiqot davomida oilada o‘smirlik davridagi farzand bilan o‘zaro munosabatlarda milliy qadriyatlarning tutgan o‘rni o‘rganildi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, oilada milliy qadriyatlarning izchil qo‘llanilishi ota-ona va farzand o‘rtasidagi o‘zaro hurmat, ishonch va emotsional yaqinlikning shakllanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Tadqiqotda o‘smirlar va ota-onalar bilan o‘tkazilgan suhbat, kuzatish va so‘rovnomalar tahlili natijasida oilaviy munosabatlarga ta’sir etuvchi asosiy omillar sifatida quyidagilar aniqlandi: oiladagi psixologik muhit, ota-onaning shaxsiy namunasi, milliy an’analarga amal qilish darajasi, o‘zaro muloqot sifati hamda farzandning fikriga hurmat bilan yondashish.

So‘rovnoma natijalariga ko‘ra, oilasida milliy urf-odat va an’analar muntazam davom ettiriladigan o‘smirlarning aksariyati ota-onalari bilan munosabatlarini ijobiy deb baholagan. Bunday oilalarda farzandlarda mas’uliyat hissi, kattalarga hurmat, oilaga sadoqat va o‘zaro yordam ko‘rsatish kabi sifatlarning rivojlanganligi kuzatildi. Aksincha, oilaviy muloqot sust bo‘lgan va milliy qadriyatlarga yetarli e’tibor berilmagan oilalarda o‘smirlar bilan ota-onalar o‘rtasida tushunmovchilik va ziddiyatlarning ko‘proq uchrashi aniqlandi.

Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, milliy qadriyatlarning o‘smir tarbiyasidagi samaradorligi, avvalo, ota-onaning ularni shaxsiy hayotida namoyon etishiga bog‘liq. Ota-onaning kattalarga hurmat, mehr-oqibat, mehnatsevarlik, halollik va mas’uliyat kabi qadriyatlarga amal qilishi o‘smirlar tomonidan ijobiy qabul qilinadi va ular ushbu xatti-harakatlarni o‘zlashtiradilar.

Kuzatish natijalariga ko‘ra, oilaviy an’analarning mavjudligi, birgalikdagi mehnat faoliyati, milliy bayramlarni birgalikda nishonlash, qarindosh-urug‘lar bilan muloqot qilish va xalq og‘zaki ijodidan foydalanish o‘smirlarda milliy o‘zlikni anglash va ijtimoiy faollikni rivojlantirishga xizmat qilishi aniqlandi.

Tadqiqot natijalari o‘smirlik davrida ota-ona va farzand o‘rtasidagi munosabatlarda majburlash va qat’iy nazoratdan ko‘ra, o‘zaro ishonch, hurmat va tushuntirishga asoslangan yondashuv samaraliroq ekanligini ko‘rsatdi. Milliy qadriyatlarning mazmunini o‘smirlarga izohlash, ularni oilaviy an’analar va marosimlarda faol ishtirok etishga jalb qilish, farzand fikriga e’tibor berish ijobiy natijalarni ta’minlaydi.

Tadqiqotning umumiy natijalari asosida oilada milliy qadriyatlarning o‘smir shaxsining ma’naviy-axloqiy rivojlanishi va ijtimoiy shakllanishidagi o‘rni muhim ekanligi aniqlandi. Oilaviy muhitda milliy qadriyatlarning izchil namoyon etilishi o‘smirlarning axloqiy qarashlari, xulq-atvori, milliy o‘zligini anglash darajasi va jamiyatdagi munosabatlariga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Tadqiqot natijalari, avvalo, oilada milliy qadriyatlar o‘smir shaxsining ma’naviy-axloqiy rivojlanishida muhim omil ekanligini ko‘rsatdi. Halollik,

rostgo‘ylik, kattalarga hurmat, kichiklarga g‘amxo‘rlik, mehr-oqibat, mehnatsevarlik, vatanparvarlik va mas’uliyat kabi qadriyatlarning kundalik oilaviy hayotda namoyon bo‘lishi o‘smirlarning axloqiy qarashlari va xulq-atvoriga bevosita ta’sir qiladi.

Shuningdek, ota-ona va farzand o‘rtasidagi ijobiy munosabatlarni shakllantirishda o‘zaro hurmat va ishonch muhim ahamiyatga ega. O‘smirlik davrida bolaning mustaqil fikrlashi va o‘z qarashlarini ifodalashga bo‘lgan ehtiyoji kuchayadi. Shu sababli ota-onalarning farzand fikrini tinglashi, uning shaxsiy qarashlariga hurmat bilan munosabatda bo‘lishi, muammolarini tushunishga harakat qilishi oiladagi sog‘lom psixologik muhitni mustahkamlaydi [4; 9].

Oilaviy an’analar va urf-odatlar ham o‘smirlarda milliy o‘zlikni anglashni kuchaytiruvchi muhim vositalardan biridir. Milliy bayramlar, oilaviy marosimlar, qarindoshlar bilan munosabatlar, kattalarni ziyorat qilish, mehmondo‘stlik va o‘zaro ko‘mak kabi an’analar orqali o‘smirlar milliy madaniyatning mazmun-mohiyatini amaliy tarzda anglab boradilar.

Bundan tashqari, ota-onaning shaxsiy namunasi milliy qadriyatlarni farzandga singdirishning eng samarali vositalaridan biri hisoblanadi. Farzand ota-onaning kundalik hayotdagi xatti-harakatlari, muomala madaniyati, mehnatga munosabati, kattalarga hurmati va oilaviy mas’uliyatini kuzatish orqali tegishli xulq-atvor me’yorlarini o‘zlashtiradi. Shu bois tarbiya jarayonida faqat nasihat qilish bilan cheklanmasdan, qadriyatlarni amaliy faoliyat va shaxsiy namuna orqali ko‘rsatish muhimdir.

Milliy qadriyatlarga asoslangan sog‘lom oilaviy muhit o‘smirlarning ijtimoiy moslashuvi, ma’naviy barkamolligi va jamiyatdagi faol ishtirokini ta’minlashga xizmat qiladi. Oilada mehr-muhabbat, o‘zaro hurmat, ishonch va mas’uliyatga asoslangan munosabatlarning qaror topishi o‘smirning o‘ziga bo‘lgan ishonchini mustahkamlaydi hamda uni ijtimoiy hayotga faol kirishishiga yordam beradi.

Xulosa. Oila inson hayotidagi eng muhim va betakror ijtimoiy muhitlardan biridir. Inson oilani tanlamaydi, balki oilada voyaga yetadi, uning qadriyatlari, urf-odatlari va ma’naviy muhitini o‘zlashtirib boradi. Shu sababli oila har bir inson uchun muqaddas va qadrli maskan hisoblanadi. Oilaga mehr va hurmat bilan munosabatda bo‘lish, uning qadriga yetish, oilaviy tinchlik va osoyishtalikni asrash kabi tushunchalar inson ongida, avvalo, oilaviy tarbiya jarayonida shakllanadi. Har bir inson o‘z oilasi tarixi, ota-bobolari va ajdodlari bilan bog‘liq xotiralarni qadrlashi orqali o‘zining tarixiy va ma’naviy ildizlarini anglab boradi.

Oilada bolalarni, ayniqsa, o‘smirlarni milliy ruhda tarbiyalash uchun keng imkoniyatlar mavjud. Milliy an’ana va qadriyatlar, xalqning turmush tarzi, milliy axloq va odob me’yorlari, oilaviy marosimlar hamda avlodlar o‘rtasidagi uzviy munosabatlar ana shu imkoniyatlarning muhim tarkibiy qismlaridir [6; 7]. Ayniqsa, bobo-buvi, ota-ona va farzandlarning o‘zaro hurmat va hamjihatlik asosida yashashi avlodlar tajribasining davomiyligini ta’minlaydi. Katta avlod vakillarining hayotiy

tajribasi, pand-nasihatlari va oilaviy qadriyatlarga sodiqligi o‘smirlar tarbiyasida muhim ma’naviy manba bo‘lib xizmat qiladi.

Shu bilan birga, ota va onaning shaxsiy ibrati o‘smir uchun muhim tarbiya maktabidir. Ota-onaning bir-biriga, farzandlariga, qarindoshlari va atrofidagi insonlarga bo‘lgan munosabati o‘smirning shaxsiy qarashlari va xulq-atvorining shakllanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shuning uchun milliy qadriyatlarni oilada singdirish, avvalo, ularni kundalik hayotda amalda namoyon etishdan boshlanishi lozim.

Umuman olganda, oilada milliy qadriyatlarni izchil va ongli ravishda singdirish o‘smirlarning ma’naviy-axloqiy rivojlanishi, milliy o‘zligini anglash, Vatanga va jamiyatga daxldorlik tuyg‘usini shakllantirish hamda ularning ijtimoiy faol va mas’uliyatli shaxs sifatida kamol topishiga xizmat qiladi. Bunda ota-onaning shaxsiy namunasi, oiladagi sog‘lom psixologik muhit, o‘zaro hurmat va ishonch, shuningdek, milliy qadriyatlarning kundalik hayotda amaliy namoyon etilishi eng muhim omillar sifatida namoyon bo‘ladi.

Demak, oilaviy tarbiyada milliy qadriyatlarni zamonaviy pedagogik yondashuvlar bilan uyg‘unlashtirish, o‘smirning shaxsiy fikri va qiziqishlarini hurmat qilish hamda avlodlar o‘rtasidagi ma’naviy aloqalarni mustahkamlash oilaning tarbiyaviy salohiyatini yanada oshirishga imkon beradi.

Tavsiyalar. Oilada milliy qadriyatlarga asoslangan sog‘lom tarbiyaviy muhitni shakllantirish. Ota-onalar kundalik munosabatlarda hurmat, mehr-oqibat, halollik, kattalarga hurmat, kichiklarga g‘amxo‘rlik va mas’uliyat kabi qadriyatlarni shaxsiy namuna orqali namoyon etishlari lozim.

Ota-ona va o‘smir o‘rtasida o‘zaro hurmat va ishonchga asoslangan munosabatlarni rivojlantirish. O‘smirning fikrini tinglash, uning qarashlariga hurmat bilan yondashish, muammolarini tushunishga harakat qilish va tarbiya jarayonida majburlashdan ko‘ra tushuntirishga ustuvorlik berish zarur.

Milliy urf-odat, an’ana va oilaviy marosimlardan tarbiyaviy vosita sifatida foydalanish. Navro‘z, Hayit bayramlari, oilaviy marosimlar, xalq sayillari va boshqa an’analarni o‘smirlarga mazmun-mohiyati bilan tushuntirish hamda ularni ushbu jarayonlarga faol jalb etish maqsadga muvofiq.

Xalq og‘zaki ijodi va ajdodlar merosidan samarali foydalanish. Maqol, matal, ertak, doston, rivoyat hamda buyuk ajdodlarimizning hayoti va faoliyati orqali o‘smirlarda vatanparvarlik, jasorat, mehnatsevarlik, adolat, sadoqat va milliy o‘zlikni anglash kabi fazilatlarni shakllantirish lozim.

O‘smirlarning milliy madaniyat va san’atga qiziqishini rivojlantirish. Milliy musiqa, hunarmandchilik, amaliy san’at, milliy kiyimlar va xalq ijodi bilan tanishtirish orqali ularning milliy-madaniy dunyoqarashini kengaytirish tavsiya etiladi.

Milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unligini ta’minlash. Milliy qadriyatlarni singdirish jarayonida bag‘rikenglik, insonparvarlik, boshqa xalqlar

madaniyatiga hurmat, hamjihatlik va o‘zaro hurmat kabi umuminsoniy qadriyatlarni ham shakllantirish zarur.

Oila va ta’lim muassasasi hamkorligini kuchaytirish. Ota-onalar, pedagoglar va psixologlar hamkorligida o‘smirlarning ma’naviy-axloqiy rivojlanishiga, milliy qadriyatlarni anglashiga va oilaviy munosabatlarning mustahkamlanishiga xizmat qiluvchi tarbiyaviy tadbirlar tashkil etish maqsadga muvofiq.

Zamonaviy axborot vositalaridan oqilona foydalanish va individual yondashuvni ta’minlash. O‘smirlarning internet va ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishida foydali, ma’rifiy va milliy qadriyatlarni targ‘ib qiluvchi kontentga e’tibor qaratish, bunda har bir o‘smirning yoshi, qiziqishi, xarakteri va psixologik xususiyatlarini hisobga olish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. — Toshkent: O‘zbekiston, 2017.
2. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. — Toshkent: O‘zbekiston, 2017.
3. Fitrat A. Oila yoki oila boshqarish tartiblari. — Toshkent: Ma’naviyat, 2000.
4. Karimova V.M. Oila psixologiyasi. — Toshkent: Fan va texnologiya, 2008.
5. G‘oziyev E.G‘. Umumiy psixologiya. — Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2010.
6. Hasanboyev J., To‘raqulov X., Haydarov M., Hasanboyeva O. Pedagogika. — Toshkent: Fan va texnologiya, 2011.
7. Mahmudov M. Oila pedagogikasi. — Toshkent: O‘zbekiston, 2007.
8. O‘zbek xalq maqollari. — Toshkent: Sharq, 2005.
9. Oila psixologiyasi: akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o‘quvchilari uchun o‘quv qo‘llanma. — Toshkent: Sharq, 2008.

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI

2026-yil
8-son

Muassis - "FAN VA INNOVATSIYA YANGILIKLARI" MCHJ
Jurnal hamkori - «PROFI UNIVERSITY»

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2024-yil 24-may kuni № 454068-sonli guvohnoma bilan ro'yxatga olingan.

Jurnal 2024-yilda tashkil etilgan, 1 oyda bir marta o'zbek, tojik, qozoq, qirg'iz, qoraqalpoq, rus va ingliz tillarida nashr etiladi.

Tahririyat manzili: 190110, Toshkent shahri Uchtepa tumani, Bog'iston MFY, 14-mavze, 8-uy.

Telefonlar: +998 90 749 00 00
+998 90 749 77 77
+998 91 902 05 01
E-mail: saen_2024@mail.ru
Jurnal sayti: www.saen.uz
Telegram kanali: **https://t.me/saen_2024**

Maqolada keltirilgan fakt va ma'lumotlarning to'g'riligi uchun mualliflar mas'uldirlar.

"Fan va ta'lim yangiliklari" ilmiy-amaliy jurnali Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining qarori (25.08.2025 y., №374/5) bilan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

ISSN: 3093-8694